

## EMPLOYMENT LEVEL OF THE POPULATION OF TERMIZ CITY

**Doniyor F. Isroilov**

2nd stage graduate student

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Tashkent, Uzbekistan

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** population, employment of the population, unemployed, standard of living of the population, labor resources.

**Received:** 12.12.22

**Accepted:** 14.12.22

**Published:** 16.12.22

**Abstract:** This article analyzes the level of employment of the population and the development of social spheres of the city of Termiz and provides additional information. The geographical factors influencing the development of social spheres today have been studied.

### TERMIZ SHAHRI AHOLI BANDLIK DARAJASI

**Doniyor F. Isroilov**

2- bosqich magistranti

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** aholisi, aholi bandligi, ishsizlar, aholi turmush darajasi, mehnat resurslari.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Termiz shahrining aholi bandlik darajasi va ijtimoiy sohalarning rivojlanishi tahlil qilingan va qo'shimcha ma'lumotlar keltirilgan. Ijtimoiy sohalarning bugungi kundagi rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillar o'rganilgan.

### УРОВЕНЬ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ ГОРОДА ТЕРМЕЗ

**Дониёр Ф. Исроилов**

Магистрант 2 ступени

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** население, занятость населения, безработные, уровень жизни населения, трудовые ресурсы.

**Аннотация:** В данной статье проведен анализ уровня занятости населения и развития социальной сферы города Термеза и предоставлена дополнительная информация. Изучены

## KIRISH

Aholini ish bilan ta'minlash eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammo bo'lib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat samaradorligining asosiy mezoni hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlarda bu muammo jamiyat salohiyati va uning istiqbollarini belgilovchi asosiy muammo sifatida qaraladi, chunki aynan bandlik sohasida insonning hayotiy ehtiyojlari qondiriladi va uning imkoniyatlari amalga oshiriladi. Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida bandlik eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, unga ko'ra umuman jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy o'zgarishlarning yo'nalishini baholash kerak.

## ASOSIY QISM

Samarali va faol rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida mehnat va bandlik sohasida qobiliyat, bilim va ko'nikmalarga talab ortib boradi. Bandlik siyosati, birinchi navbatda, inson resurslaridan samarali foydalanishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Mehnat bozorida, ishchi kuchi sifatini oshirish, ishsizlarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashishi lozim.

Bandlik siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat;

- mehnat bozori haqida ma'lumot berish.
- mehnat bozori rivojlanishi to'g'risidagi, bo'sh ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlarni tarqatish.
- ish bilan ta'minlanishda yordam berish.
- bo'sh ish o'rinlari bankini yaratish, aholi bilan maslahatlashib mos ish joyi tanlashda yordam berish, ish joylari haqida ularni xabardor qilish.
- Mehnat yarmarkalarini o'tkazish, ma'lum bir sohasini tanlash bo'yicha maslahatlar berish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, psixologik yordam ko'rsatish.
- Kasbiy ta'lim. Ishsizlarni mutaxassisliklar va kasblar bo'yicha kasbiy ta'lim; mehnat bozorida talab va taklif, ta'lim muassasalari tarmog'ini yaratish, o'quv jarayonini tashkil etish.
- Tadbirkorlik va o'z-o'zini ish bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlash. o'z biznesingizni boshlash professional maslahat, moliyaviy yordam.
- Yoshlar bandligini ta'minlash. Yoshlarga oid bandlik dasturlarini ishlab chiqish, Ishsizlarni kasbiy faoliyatni talab qilmaydigan haq to'lanadigan faoliyatga jalb qilish.
- Qo'llab-quvvatlashga muhtoj shaxslarni ishga qabul qilish uchun kvotalar yaratish.


2022-2026 yillarda Surxondaryo viloyatni hududlarini iqtisodiy -ijtimoiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan. Bu qarorning 1 bo'lim "Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi

daromadlarini oshirish, shu orqali kambag'allik va ishsizlikni qisqartirish" deb nomlangan. Unda quyidagi vazifalar belgilab berilgan:

- Viloyatda ishsiz, jumladan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan fuqarolarning bandligini ta'minlash orqali ularning daromadlarini oshirish;
- Hunarmandchilikni rivojlantirish. har bir tuman va shaharda, shu jumladan, ixtisoslashgan mahallalarda hunarmandchilikning "drayver" yo'nalishlarini rivojlantirish hamda sohada kooperatsiya va klasterlar faoliyatini jonlantirish;
- Mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, ularda istiqomat qilib, faoliyat yurituvchi aholini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qaror asosida Termiz shaharida ham aholi bandligini ta'minlash maqsadida yo'l xaritalari ishlab chiqilgan.

Mehnat resurslarining manbai mamlakat aholisidir. Aholining faqat mehnatga yaroqli qismigina mehnat resurslari hisoblanadi. Viloyatdagi qulay ijtimoiy-demografik vaziyat mehnat resurslari shakllanishini yuqori sur'atda ta'minlashga xizmat qilmoqda. Quyidagi diagrammadan ham ko'rinib turibdiki viloyatda mehnat resurslari soni o'sib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ish o'rinlari tashkil etilishini talab qiladi.



Surxondaryo viloyati aholisi 2743.2 kishini, faol aholi soni va ishga yaroqlilar soni 1115.8 ming kishini tashkil qilsa, shundan iqtisodiyotda band aholi 1001.9 ming kishini tashkil etadi. Ishsizlar esa 114 ming kishini tashkil etmoqda. Termiz shahrida 87 mingga yaqin aholi ishga yaroqli va iqtisodiyotda bandlar esa 78.6 ming kishini tashkil etadi. Ishsizlar esa 8 ming kishi bo'lib qolmoqda.

Termiz shahrida vaqtincha ishsizlik mavjudligi sabablaridan biri - ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ya'ni, ish bilan band bo'lmagan aholining katta qismi

malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi marta chiqayotgan yoshlarni tashkil etmoqda. Aksincha, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakaga va ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Iqtisodiy faol aholi bandligini hududlar miqiyosi bo'yicha taqsimlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, bunda o'ziga xos jihatlarni kuzatish mumkin.

Surxondaryo viloyati (89.8%), Termiz shahrida (90.8 %), Angor tumanida (89.8 %), Bandixon (89.6%) , Boysun ( 89.7%), Denov (89.8%), Jarqo'rg'on (89.8%), Qiziriq (89.6%), Qumqo'rg'on (89.7%) , Muzrabot (89.5%), Oltinsoy (89.4%), Sariosiyo (89.6%), Termiz tumani (89.9%), Uzun ( 89.7%) , Sherobod (89.9%) va Sho'rchi esa ( 89.7%) ni tashkil etmoqda (2021-yil). Hududlar bo'yicha aholi va mehnat resurslarining notekis taqsimlanganligi sababli ish bilan band bo'lganlar soniga ko'ra tuman va shaharlar o'zaro farqlanadi.

Termiz shahrida aholi turmush darajasini oshirish, munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash hamda kadrlar tayyorlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga, samarali iqtisodiy islohotlar hamda intellektual salohiyat bilan bog'liq bo'lgan sohalardagi bir qator ijobiy o'zgarishlar natijasida sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Mehnat bozorida yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor bois, jami aholiga nisbatan ish bilan ta'minlash ulushi yuqori bo'lmoqda. Ularga jamiyatda munosib o'rin topishiga ko'maklashish va tashabbus ko'rsatib mehnat qilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yildi. Yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlar esa, barcha sohalarda o'z qobiliyatini namoyon etmoqda. Binobarin, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish vazifasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mehnat bozoridagi vaziyatni xolisona baholash, mehnatga layoqatli aholi sonini xalqaro standartlarga muvofiq aniqlash hamda mehnat resurslari balansini ishlab chiqish tartibini shakllantirishda.

## XULOSA

Termiz shahrida 2022-2026 yillarda yangi sanoat korxonalarini qurish, xizmat ko'rsatish obyektlarini ishga tushirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan yaangi ish o'rinlari tashkil etiladi. Aholi turmush darajasini yanada oshirish, aholi bandligi va u bilan bog'liq muammolarni hal etish muhim vazifa bo'lib, Termiz shahrining aholini bandligini to'liq ta'minlash uchun ish o'rinlari yaratilishi ko'zda tutilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Axmedov E.- O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - T., "Abu Ali Ibn Sino", 2002.
2. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. Darslik T.: "Universitet" 2014.
3. Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. T-: "Mumtoz so'z", 2010.
4. Soliyev A. Va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. - T.,-2003.

5. Axborot manbalari
6. [www.undp.uz](http://www.undp.uz)
7. [www.gwpcancena.org](http://www.gwpcancena.org)
8. [www.geogr/msu.ru](http://www.geogr/msu.ru)
9. [www.uzgeo.uz](http://www.uzgeo.uz)